



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M A KTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 450 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapiirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
<i>Masharipova Kumushoy Amin qizi</i>	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
<i>Mavlonova Dildora Shukhrat kizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
<i>N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova</i>	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
<i>Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich</i>	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
<i>Rajabova Shaxlo Shodmonovna</i>	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
<i>Ramazonova Salomat Saidovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
<i>Saidova Gulruh Halim qizi</i>	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
<i>Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna</i>	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
<i>Xakimova Dildora Mashrabjonovna</i>	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
<i>Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна</i>	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
<i>Rashidova Gulnoza G'ulomovna</i>	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
<i>Xaydarov Sulaymon Amirqulovich</i>	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
<i>Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li</i>	
Ko'zi ojiz bolalarning rus tili darslarida nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning psixopedagogik asoslari	268
<i>Abduraximov Asror Sultonali o'g'li</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kasblar haqida dastlabki tasavvurlarni shakllantirishning psixologik-pedagogik asoslari	271
<i>Adizova Nilufar Quvondiq qizi</i>	
Zamonaviy media texnologiyalarini ta'lim jarayoniga qo'llashning zarurati	274
<i>Alimov Asadulla Urokbayevich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhitning ta'siri	278
<i>Alimova Umida Jumaboy qizi</i>	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi	282
<i>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</i>	
Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarining rivojlanish tarixi va ommalashuvi	286
<i>Hojiyeva Maftuna Ulug'bekovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarida raqamli resurslardan foydalanish orqali adabiy kompetensiyani rivojlantirish	289
<i>Islomova Xafiza Azamatovna</i>	
Ona tili o'qitish metodikasi fanidan mustaqil ta'limni tashkil etish	293
<i>Ismadiyorova Nafisaxon Ibroximjon qizi</i>	
Axloqshunoslikning global muammolari va texnikaviy muhitning inson hayotiga ta'siri	298
<i>Kozimova Nargiza Istam qizi</i>	
Ichki ishlar organlari xodimlarida kasbiy kompetentlikni oshirish va baholash usullarining xalqaro tahlili	303
<i>Mamatqulova Sanobar Ismatillayevna, Eshmurzayev Yigitali Shokirovich, Kadirova Durdonaxon Rustamovna</i>	
Tabiiy fanlarda bilingval ta'lim va CLIL yondashuv	309
<i>Mannobxonova Muqaddamxon O'ktamxon qizi</i>	



Kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda pragmatik muammolar va ularning yechimlari	313
Maxmudova Nigoraxon Boyqo'zi qizi	
Poshshoxo'ja Ibn Abdurahobxo'janing "Miftoh ul-adl" asaridagi pedagogik qarashlari	317
Muzaffarova Farida Muxtor qizi	
Boshlang'ich ta'lim jarayonida matn tushunishni shakllantirishda germenevtik metodlarning nazariy asoslari	321
Nazirova Shaxnoza Odinajon qizi	
Axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirishda raqamli gigiyena va internet xavfsizligi	324
Ramazonov Jahongir Djalolovich	
Informatika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar	328
Sadinov Otabek Vaxodirovich	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijtimoiylashuvida musiqa fanining ta'siri	332
Shahobiddinova Zilola Orif qizi	
Madaniy-ijtimoiy va ta'limiy omillarning bolalarning aqliy rivojlanishiga ta'siri	335
Shirinov Otabek Tuvlovich	
Tadqiqot metodi vositasida o'quvchilarda tabiiy-ilmiy savodxonlikni rivojlantirish	338
Suyarov Kusharbay Tashbayevich	
Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kommunikativ kompetensiyasi va nutq madaniyati	342
Saipova Hilola Abduhamitovna	
"Ekologik ochiq o'yinlar" 5–7 yoshli bolalar uchun	346
Tangirov Zoir Xo'jakulovich	
Yuqori malakali taekvondochilarni o'ziga xos genetik xususiyatlarini hisobga olgan holda sport seleksiyasi	350
Tursunaliyev Ulug'bek Shavkatjon o'g'li	
Musiqa maktabi o'quvchilarida madaniy qadriyatlar va ustoz-shogird an'analarining uzluksiz rivojlanishi ..	353
Seytanov Bayrambay	
Imom Buxoriyning "Al-Jome' as-sahih" asari talabalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirish omili sifatida	356
Abduhalimova Nigora	
O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda AKT vositalaridan foydalanishning metodik asoslari	359
Abdullayeva Zarnigor Usubjon qizi	
Коммуникативная компетентность и культура общения преподавателей начальных классов	364
Арысланбаева Анора Бердаховна	
Проблемы методической подготовки учителей в развитие дискурсивной компетенции по РКИ у учащихся уровня В1 средних общеобразовательных школ Узбекистана	366
Набиева Зарнигор Муминжон кизи	
"Tarbiya" darslari orqali o'quvchilarda huquqiy savodxonlikni rivojlantirish	369
Atamuradov Xasan Yuldoshevich	
Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining inklyuziv ta'limga tayyorgarligi: pedagogik va psixologik asoslari	374
Baxromova Guljamol Dilshodjon qizi	
Tajriba metodlari orqali maktab o'quvchilarida tabiat hodisalarini bashorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish	378
Baxtiyor Imanov, Begali Xoliqnazarov	
Bo'lajak pedagoglarning tashkillashtiruvchi-boshqaruvchilik kompetentligini shakllantirishning pedagogik-psixologik asoslari	384
Japparbergenova Indira Bayramovna	
Integrativ yondashuv asosida biologiya fanidan olimpiada masalalarini yechish metodikasi	387
Jumanov Muratbay Arepbaevich, Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Darslarni tashkil qilishda 4K modelini qo'llash imkoniyatlari	393
Kadirov Tulkin Baxridinovich	
Maktabgacha yoshdagi bolalarga tasviriy faoliyatning noodatiy usullarini o'rgatish metodikasi	397
Maxmudova Nasiba Nurmuxammetovna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida funksional savodxonlik tushunchasini ilmiy-pedagogik asoslash masalalari	406
Mirzaliyeva Gulhayo Abdulazizovna	

So'rovga asoslangan ta'lim texnologiyasining bosqichlari va qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish	410
Orifjonova Iroda Orifjon qizi, Ochilova Mehrubon Suratovna	
Dermatovenerologiya fanini casc (Critisize, Analyze, Summarize, Conclude) modeli orqali o'qitish va uning talabalar klinik kompetentligini oshirishdagi o'rni	415
Po'latov Boburbek Ta'lat o'g'li	
Sport faoliyatida stress holatini tadqiq etishning nazariy asoslari.....	419
Ruzmatova Nigina Shotilla qizi	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim tarbiyachilarini kreativlikni rivojlantirish metodikasini takomillashtirish.....	422
Uchqunova Adiba Roziq qizi	
7-sinf adabiyot darslarida nutqni rivojlantiruvchi o'quv topshiriqlari tahlili.....	427
Umurova Farangiz Askarboy qizi	
O'zbek tilida fe'l birikmalarining pragmatik funksiyalari va ularning ingliz tili bilan qiyosi	430
Xudoynazarova Dildora Shonazar qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish metodikasi.....	433
Zayniddinova Mahzuna Baxtiyorovna	
Фольклор и время: формирование речевых навыков у детей начальной школы	439
Ниязова Хилола	
Xalq o'yinlari – jismoniy va ma'naviy tafakkur omili	443
Turg'unoy Ahmadjonovna Egamberdiyeva, Ergashoy Valijonova Salimjon qizi	
Использование проектной деятельности для формирования языковой компетенции	446
Чаршамова Мехрийбан Уразбаевна	

BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA FUNKSIONAL SAVODXONLIK TUSHUNCHASINI ILMIY- PEDAGOGIK ASOSLASH MASALALARI

Mirzaliyeva Gulhayo Abdulazizovna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Maqolada funksional savodxonlik tushunchasining kelib chiqishi, uning zamonaviy ta'lim jarayonidagi ilmiy-pedagogik mohiyati va boshlang'ich sinf o'quvchilariga moslashtirilgan talqini yoritilgan. Tadqiqotda an'anaviy savodxonlikdan farqli ravishda bilimni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish, mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish zarurligi asoslab beriladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar va milliy ta'lim siyosati asosida funksional savodxonlikni shakllantirishning nazariy yo'nalishlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: funksional savodxonlik, boshlang'ich ta'lim, tanqidiy fikrlash, kompetensiyaviy yondashuv, xalqaro tajriba, o'quv savodxonligi, integratsiya, pedagogik model.

Abstract: The article explores the origin of the concept of functional literacy, its scientific-pedagogical essence in modern education, and its adapted interpretation for primary school students. Unlike traditional literacy, the study emphasizes the necessity of applying knowledge in real-life situations, making independent decisions, and fostering critical thinking. Furthermore, international practices and national educational policies on developing functional literacy are analyzed.

Key words: functional literacy, primary education, critical thinking, competency-based approach, international experience, reading literacy, integration, pedagogical model.

Аннотация: В статье рассматривается происхождение понятия функциональной грамотности, его научно-педагогическая сущность в современном образовательном процессе и адаптированная интерпретация для учащихся начальных классов. Обосновывается необходимость развития у школьников умений применять знания в жизненных ситуациях, принимать самостоятельные решения и развивать критическое мышление. Кроме того, анализируются международный опыт и национальная образовательная политика по формированию функциональной грамотности.

Ключевые слова: функциональная грамотность, начальное образование, критическое мышление, компетентный подход, международный опыт, читательская грамотность, интеграция, педагогическая модель.

KIRISH

Bugungi kunda dunyo ta'lim tizimi oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri – o'quvchilarni shunchaki bilim oluvchi emas, balki o'z bilimini real hayotiy vaziyatlarda samarali qo'llay oladigan faol shaxs sifatida shakllantirishdir. Shu ma'noda, funksional savodxonlik tushunchasi ta'lim siyosatida ham, pedagogik amaliyotda ham asosiy tamoyillardan biriga aylanmoqda. UNESCOning 2021-yilgi "Global Education Monitoring Report"ida savodxonlik faqat o'qish va yozishni bilish emas, balki "axborotni tushunish, qayta ishlash, muammoni hal qilish va muloqot qilish kompetensiyalari majmui" sifatida talqin qilingan. Demak, funksional savodxonlik – bu o'quvchi bilimini real hayot sharoitiga ko'chira olish qobiliyatidir. OECD tomonidan muntazam ravishda o'tkazib kelinayotgan PISA xalqaro baholash dasturi natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar ko'pincha aniq bilimga ega bo'lsalar-da, uni amaliy vaziyatlarda qo'llashda qiynaladilar. Ayniqsa, mantiqiy fikrlash, sabab-oqibatni aniqlash, qaror qabul qilish va ijtimoiy muloqot kabi kompetensiyalarni rivojlantirishda ta'lim tizimlari zaiflikka duch kelmoqda. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalarning rivojlanish bosqichlarini hisobga olsak, bu davr funksional savodxonlikni shakllantirish uchun eng qulay davrdir.

J. Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, 6-10 yosh oralig'idagi bolalar "konkret operatsion" bosqichda bo'lib, ular narsalar orasidagi mantiqiy bog'lanishlarni anglay boshlaydilar, tasniflash va qiyoslash kabi amaliy fikrlash usullaridan foydalanadilar. V. Vygotский ta'kidlaganidek, bolaning "yaqin rivojlanish zonasi"ni kengaytirishda o'qituvchi va tengdoshlarning roli katta, ya'ni bolaga bilimni mustaqil o'zlashtirish imkoniyatini



yaratish zarur. Shu bois boshlang'ich ta'lim metodlari nafaqat bilim berishga, balki uni qo'llashga ham yo'naltirilishi zarur. Ilmiy adabiyotlarda ham funksional savodxonlikka turlicha yondashuvlar mavjud. Masalan, Beninson funksional savodxonlikni "bilim va ko'nikmalarni ijtimoiy kontekstda samarali qo'llash" deb sharhlaydi. Lukenchuk esa raqamli jamiyat sharoitida funksional savodxonlikni media va axborot savodxonligi bilan uyg'unlikda ko'rib chiqadi. G. S. Kovaleva boshlang'ich sinf o'quvchilarida bu kompetensiyalarni shakllantirishda integratsiyalashgan topshiriqlardan foydalanish samarali ekanini ta'kidlaydi. Shu asosda ushbu maqolada asosiy e'tibor funksional savodxonlik tushunchasini boshlang'ich ta'limga moslashtirib ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashga qaratiladi. Muammoning nazariy manbalari, xalqaro va milliy tajribalar hamda amaliy xulosalar orqali funksional savodxonlikni samarali shakllantirish yo'llari ko'rsatib beriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

shbu maqolani tayyorlashda empirik tajribalar emas, balki mavjud ilmiy manbalar hamda xalqaro va milliy hujjatlarning tahliliga asoslangan yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot metodlari asosan nazariy-tahliliy, qiyosiy, konseptual va tizimli yondashuv asosida shakllantirildi. Maqola metodlari xalqaro va milliy manbalarni chuqur tahlil qilish, ularni qiyoslash va integratsiyalash orqali tanlandi. Mavjud ilmiy tajriba, pedagogik konsepsiyalar hamda normativ hujjatlar asosida funksional savodxonlikning boshlang'ich ta'limdagi ilmiy-pedagogik talqini yoritib berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Funksional savodxonlik masalasi so'nggi yillarda xalqaro pedagogika va ta'lim siyosati doirasida dolzarb muammolardan biriga aylandi. Jahon ta'lim tizimlarida ta'limning sifat ko'rsatkichlari endilikda o'quvchilarning faqat bilim darajasi bilan emas, balki ushbu bilimni amaliy hayotiy vaziyatlarda qo'llash qobiliyati bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, funksional savodxonlik tushunchasining nazariy asoslari, uning komponentlari, shakllanish bosqichlari hamda milliy va xalqaro tajribadagi tatbiqlari bo'yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu bo'limda mazkur ilmiy manbalar tahlili keng yoritiladi.

Funksional savodxonlik dastlab UNESCO hisobotlarida keng yoritila boshlagan. 2015-yildagi "Education for All Global Monitoring Report"da savodxonlik shaxsning o'qish va yozish qobiliyatidan ancha kengroq mazmun kasb etishi, hayotiy vaziyatlarni hal etish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy, kommunikativ va kognitiv ko'nikmalarni o'z ichiga olishi ta'kidlangan (UNESCO, 2015).

Shuningdek, OECD tomonidan o'tkazilgan PISA tadqiqotlarida (2018, 2022) funksional savodxonlik "real hayotiy muammolarni yechishda bilim va ko'nikmalarni samarali qo'llash qobiliyati" sifatida talqin qilinadi. PISA doirasida o'quvchilarning nafaqat matnni o'qiy olishi, balki undan mustaqil xulosa chiqarishi, ma'lumotlarni tahlil etishi va qaror qabul qilishi asosiy mezon sifatida olinadi.

Psixologik nuqtayi nazardan, J. Piage funksional fikrlashning shakllanishini bolaning kognitiv rivojlanish bosqichlari bilan bog'lagan. Uning nazariyasiga ko'ra, 6-10 yosh oraliqidagi bolalar "konkret operatsion" bosqichda bo'lib, sabab-oqibat munosabatlarini anglay boshlaydilar, tasniflash, qiyoslash, mantiqiy izchillikni tushunish imkoniyatiga ega bo'ladilar (Piaget, 1970). V. Vygotskiy esa bolaning rivojlanishida "yaqin rivojlanish zonasi" nazariyasini ilgari surib, bilim va ko'nikmalar kattalar hamda tengdoshlar ko'magida tezroq shakllanishini ta'kidlaydi. Demak, nazariy jihatdan funksional savodxonlik shaxsning bilimni qo'llash qobiliyatini ifodalaydi va u bolaning psixologik rivojlanish bosqichlari bilan uzviy bog'liqdir.

Ilmiy adabiyotlarda funksional savodxonlik ko'pincha bir nechta tarkibiy qismlarga ajratiladi. Masalan, OECD (2019) hisobotida quyidagi asosiy yo'nalishlar ko'rsatiladi:

- matn bilan ishlash savodxonligi (reading literacy) – matnni tushunish, undan axborot olish, tahlil qilish va xulosa chiqarish qobiliyati;
- matematik savodxonlik (mathematical literacy) – miqdoriy ma'lumotlarni tahlil qilish, hisob-kitoblarni amaliy vaziyatlarda qo'llash;
- tabiiy fanlar savodxonligi (science literacy) – tabiat hodisalarini tushunish, kuzatish va ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilish;
- axborot va media savodxonligi – raqamli texnologiyalar orqali axborotni izlash, tahlil qilish va baholash qobiliyati.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xalqaro baholash dasturlari funksional savodxonlikni o'lchashda muhim metodologik asos hisoblanadi. Masalan, PISA dasturi 15 yoshli o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda matn, matematika va tabiiy fanlar bo'yicha bilimlarni qo'llash qobiliyatini baholaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ta'lim tizimlari o'quvchilarda

bilimlarni yodlashdan ko'ra, ularni qo'llashni rivojlantirishga ko'proq e'tibor qaratishi zarurligi isbotlangan. PIRLS tadqiqoti esa 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholaydi. 2021-yilgi natijalarda O'zbekiston o'quvchilarining ko'rsatkichlari xalqaro mezonlardan past bo'lib chiqqan. Bu holat boshlang'ich ta'limda o'qish va matn bilan ishlash ko'nikmalarini chuqurlashtirish zarurligini ko'rsatdi (IEA, 2022). TIMSS dasturi o'quvchilarning matematika va tabiiy fanlar bo'yicha tayyorgarligini baholaydi.

Tadqiqotlarda o'quvchilarning faqat nazariy bilim emas, balki amaliy muammolarni hal etish qobiliyati ham sinovdan o'tkaziladi. EGRA (Early Grade Reading Assessment) esa o'quvchilarning boshlang'ich sinflardagi o'qish ko'nikmalarini diagnostika qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, u turli mamlakatlarda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan. Funktsional savodxonlik masalasi zamonaviy pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlaridan biri bo'lib, ayniqsa boshlang'ich ta'lim bosqichida uning nazariy asoslari va amaliy yechimlarini chuqur tahlil qilish zaruriyati ortib bormoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, xalqaro hamda milliy miqyosdagi yondashuvlarda umumiy maqsad bir xil – o'quvchilarni bilimdan foydalana oladigan, ijtimoiy faol shaxs sifatida tarbiyalashdir, biroq bu yondashuvlar o'ziga xos jihatlariga ega va ulardan kelib chiqib bir qator masalalarni muhokama qilish lozim.

UNESCO va OECD materiallari funktsional savodxonlikni keng qamrovli tushuncha sifatida ko'rsatadi. U faqat o'qish-yozish emas, balki tanqidiy fikrlash, muammoni hal etish, ijtimoiy muloqot va qaror qabul qilish kabi kompetensiyalarni qamrab oladi. Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlarda ushbu tushunchaga berilgan izohlar turlicha: biri uni ijtimoiy kontekstda faoliyat yuritish qobiliyati sifatida ko'rsa, boshqasi raqamli jamiyatda media va axborot savodxonligi bilan uyg'unlikda talqin qiladi. PISA, PIRLS va TIMSS natijalari funktsional savodxonlikni o'lchash mezonlari sifatida ta'lim tizimlarida tub o'zgarishlar keltirib chiqardi. Masalan, 2018-yili PISA natijalari shuni ko'rsatdiki, yuqori natija ko'rsatgan mamlakatlar (Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya) o'quvchilarni bilimni amaliyotda qo'llashga yo'naltiruvchi metodlarni joriy qilgan. Bunday yondashuvlarda integratsiyalashgan topshiriqlar, muammoli vaziyatli mashg'ulotlar va ijodiy topshiriqlar muhim o'rin tutadi. O'zbekistonning PIRLS tadqiqotidagi 2021-yildagi ishtiroki esa ayrim muammolarni ochib berdi: 4-sinf o'quvchilarida matnni chuqur anglash va undan xulosa chiqarish ko'nikmalari yetarli emasligi aniqlandi. Milliy pedagogik izlanishlarda esa ko'proq o'quvchilarda matn bilan ishlash va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy yo'nalish sifatida ko'rilmog'da. Nazariy jihatdan umumiylik mavjud bo'lsa-da, amaliy yondashuvlarda tafovutlar seziladi. Psixologik nazariyalar ko'rsatganidek, boshlang'ich ta'lim davri bolaning fikrlash va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirishda hal qiluvchi davrdir. Shu sababli, funktsional savodxonlikni aynan shu bosqichda shakllantirish ta'limning keyingi pog'onalarida muvaffaqiyat kaliti bo'lib xizmat qiladi. Biroq mavjud adabiyotlarda ko'pincha funktsional savodxonlikning umumiy talqiniga urg'u berilgan, lekin boshlang'ich sinflarga moslashtirilgan maxsus metodologiyalar yetarli darajada ishlab chiqilmagan va bu muammo muhim ilmiy bo'shliqdir.

So'nggi yillarda O'zbekistonda qabul qilingan ta'lim hujjatlari funktsional savodxonlikni rivojlantirishni ustuvor yo'nalish sifatida belgiladi. Bu hujjatlarda kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligi qayd etilgan. Ammo pedagogik amaliyotda muammolar saqlanib qolmoqda: o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi yetarli emas; diagnostika vositalari (testlar, topshiriqlar, mezonlar) yetarlicha ishlab chiqilmagan; darsdan tashqari faoliyatlar (media savodxonlik, oila bilan hamkorlik) to'liq o'zlashtirilmagan. Mavjud siyosiy irodaga qaramay, amaliy bosqichda metodik va tashkiliy yechimlarni ishlab chiqish talab etiladi. Zamonaviy adabiyotlarda funktsional savodxonlikni rivojlantirishda STEAM yondashuvi, CLIL metodikasi va fanlararo integratsiya alohida o'rin tutmoqda. STEAM fanlari asosida ishlab chiqilgan topshiriqlar o'quvchilarda matematik, tabiiy fan va texnologik bilimlarni hayotiy vaziyatlarda qo'llashni ta'minlaydi. CLIL metodikasi esa xorijiy til va fanlarni integratsiyalash orqali o'quvchilarda ko'p darajali savodxonlikni shakllantiradi. O'zbekiston ta'limida bu metodlar endigina joriy qilinmoqda, ularni mahalliy sharoitga moslashtirish, ona tili va o'qish savodxonligi darslariga qo'shib olib kirish dolzarb masala hisoblanadi.

XULOSA

Ushbu maqolada funktsional savodxonlik tushunchasining ilmiy-pedagogik asoslari, xalqaro va milliy adabiyotlarda berilgan turli talqinlari hamda boshlang'ich ta'lim kontekstida qo'llanish imkoniyatlari keng tahlil qilindi. Adabiyotlar tahlili va muhokamalar shuni ko'rsatdiki, funktsional savodxonlik zamonaviy ta'lim jarayonida shunchaki o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalaridan iborat emas, balki o'quvchilarning real hayotiy vaziyatlarda bilimni samarali qo'llash, mustaqil qaror qabul qilish, tanqidiy va ijodiy fikrlash hamda ijtimoiy muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, PISA, PIRLS, TIMSS kabi yirik baholash dasturlarida ta'lim sifati o'quvchilarning yodlangan bilimidan ko'ra, bilimdan foydalanish ko'nikmalariga asoslanmoqda. Natijalardan ma'lum bo'ldiki, yuqori o'rinlarni egallagan mamlakatlar (Singapur, Finlyandiya, Janubiy Koreya) o'quvchilarda funktsional savodxonlikni shakllantirishni ustuvor vazifa sifatida



belgilagan. O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlardagi ishtiroki esa hali yechilmagan muammolarni ochib berdi: o'quvchilarning matn bilan ishlash, xulosa chiqarish va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari yetarli emas. Psixologik nazariyalarga tayangan holda shuni ta'kidlash mumkinki, boshlang'ich ta'lim davri funksional savodxonlikni shakllantirish uchun eng qulay davrdir. Shu sababli bu jarayonga o'qituvchilar, ota-onalar va ta'lim siyosati subyektlari birgalikda e'tibor qaratishi lozim. Milliy ta'lim siyosatida ham bu masala dolzarb yo'nalish sifatida qayd etilgan. Prezident qarorlari va Milliy o'quv dasturida o'quvchilarda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirish vazifasi belgilangan. Biroq amaliyotda o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, diagnostika vositalari va darsdan tashqari faoliyatlar bo'yicha yetarli uslubiy yechimlar ishlab chiqilmagan.

Tavsiyalar

1. **Boshlang'ich ta'lim dasturlarini yangilash.** Funksional savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar, integratsiyalashgan mashg'ulotlar va hayotiy vaziyatlarga asoslangan metodik qo'llanmalar keng joriy qilinishi zarur.
2. **O'qituvchilarning metodik tayyorgarligini oshirish.** O'quvchilarni funksional savodxonlikka yo'naltirish uchun pedagoglarni zamonaviy didaktik texnologiyalar – CLIL, STEAM, kollaborativ o'qitish va refleksiya metodlari bo'yicha qayta tayyorlash talab qilinadi.
3. **Diagnostika vositalarini ishlab chiqish.** O'quvchilarning savodxonlik darajasini aniq o'lchash uchun xalqaro mezonlarga tayangan holda milliy test topshiriqlari, baholash indikatorlari va mezonlari ishlab chiqilishi lozim.
4. **Darsdan tashqari faoliyatlarni kuchaytirish.** Kutubxona ishlari, media savodxonlik, oilaviy o'qish an'analari va raqamli resurslardan foydalanish orqali funksional savodxonlikni rivojlantirish imkoniyatlari kengaytirilishi zarur.
5. **Xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirish.** PISA va PIRLS dasturlarida muvaffaqiyatli natijaga erishgan mamlakatlar tajribasidan foydalanib, ularni O'zbekiston ta'lim tizimiga mahalliy sharoit va o'quvchi ehtiyojlariga mos holda joriy etish muhim.

Funksional savodxonlikni rivojlantirish – bu zamonaviy ta'limning bosh maqsadlaridan biridir. Boshlang'ich sinflarda mazkur kompetensiyalarni shakllantirish keyingi bosqichlardagi muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi. Shu bois mazkur maqola orqali adabiyotlar tahlili natijasida asoslab berilgan konseptual yondashuvlar O'zbekiston ta'lim amaliyotida samarali qo'llanilsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va hayotiy muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNESCO. Education for All Global Monitoring Report 2015: Literacy for All. Paris: UNESCO, 2015. – 264 p.
2. UNESCO. Global Education Monitoring Report 2021/2022: Non-state actors in education. Paris: UNESCO, 2022. – 438 p.
3. OECD. PISA 2018 Results (Volume I): What Students Know and Can Do. Paris: OECD Publishing, 2019. – 354 p. DOI: 10.1787/5f07c754-en
4. OECD. PISA 2022 Results (Volume I): The State of Learning and Equity in Education. Paris: OECD Publishing, 2023. – 368 p. DOI: 10.1787/7f7d9f4b-en
5. IEA. PIRLS 2021 International Results in Reading. Amsterdam: International Association for the Evaluation of Educational Achievement, 2022. – 412 p.
6. RTI International. Early Grade Reading Assessment (EGRA) Toolkit, Second Edition. Washington, DC: RTI Press, 2017. – 191 p.
7. Piaget, J. The Psychology of the Child. New York: Basic Books, 1970. – 246 p.
8. Выготский, Л. С. Мышление и речь. – Москва: Педагогика, 1984. – 350 с.
9. Бенинсон, В. Л. Функциональная грамотность школьников: подходы и стратегии. – Москва: Академкнига, 2019. – 198 с.
10. Ковалева, Г. С. Функциональная грамотность младших школьников: диагностика и развитие. – Санкт-Петербург: Речь, 2018. – 240 с.
11. Lukenchuk, A. Functional Literacy in the Digital Age. New York: Routledge, 2020. – 280 p. DOI: 10.4324/9780429355299
12. Abdullayeva, Sh. A. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarning funksional savodxonligini shakllantirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 190 b.
13. Хидирова, Х. X. Начальная школа и развитие функциональной грамотности учащихся. – Ташкент: Ilm Ziyoy, 2020. – 176 с.
14. Bybee, R. The Case for STEM Education: Challenges and Opportunities. Arlington: NSTA Press, 2013. – 116 p.
15. Coyle, D., Hood, P., Marsh, D. CLIL: Content and Language Integrated Learning. Cambridge: Cambridge University Press, 2010. – 184 p.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.